# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 31 190,8 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 30 785,4 mlrd. so‘mni (104,3 %), o‘rmon xo‘jaligi 360,6 mlrd. so‘mni (102,6 %), baliqchilik xo‘jaligi 44,8 mlrd. so‘mni (59,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,6 % ni tashkil qildi.



**31 190,8 mlrd. so‘m**

**30 785,4** **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

**360,6** **O‘rmon xo‘jaligi**

**44,8** **Baliqchilik xo‘jaligi**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, *mlrd. so‘m*



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (3 136,9 mlrd. so‘m) Koson (2 906,6 mlrd. so‘m) Qamashi (2 606,9 mlrd. so‘m) Kasbi (2 590,7 mlrd. so‘m) Yakkabog' (2 519,5 mlrd. so‘m) Qarshi (2 256,3 mlrd. so‘m) Chiroqchi (2 219,9 mlrd. so‘m) va Nishon (2 143,2 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shahrisabz shahar (2 15,6 mlrd. so‘m) va Qarshi shahar (2 44,0 mlrd. so‘m)larni keltirib o‘tish mumkin.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

**Hosil yig‘imi**. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 434,6 ming tonna sabzavot (6,2 foizga ko‘p ) yetishtirildi.

## 2024- yilning yanvar-sentabrida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

| | **Fermer xo‘jaliklari** | | **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** | | **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ***tonna*** | ***o‘sish sur’ati, foizda*** | ***tonna*** | ***o‘sish sur’ati, foizda*** | ***tonna*** | ***o‘sish sur’ati, foizda*** |
| Kartoshka | 33 332,0 | 102,4 | 119 908 | 100,9 | 1 577,0 | 132,4 |
| Sabzavotlar | 115 108,0 | 122,0 | 312 907,0 | 100,7 | 6 543,0 | 150,3 |
| Poliz | 123 076 | 117,9 | 79 821,0 | 100,7 | 2 923,0 | 2,2 m. |
| Meva | 90 835,0 | 107,4 | 66 799,0 | 102,4 | 3 572,0 | 112,4 |
| Uzum | 47 898,0 | 115,5 | 33 453,0 | 101,0 | 1 568,0 | 198,2 |



## Dehqonchilik

2024- yilning yanvar–sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 2106,4 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 39,8 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 434,6 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 72,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha
**sabzavotlar**
**yetishtirish hajmi,** *tonna*






## Chorvachilik

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 18 302,7 mlrd. so‘mni yoki
2023- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 60,2 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 241,7 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 3,2 % ga ko‘p), 974,7 ming tonna sut (4,4 % ga ko‘p), 419,2 mln. dona tuxum (0,5 % ga ko‘p) va 1918,0 tonna baliq 42,5 % ga kam) ovlandi.




## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

| | *miqdori* | *o'sish sur'ati, %* |
|---|---|---|
| **Go'sht (tirik vaznda), *ming tn.*** | **241,7** | **103,2** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 7,5 | 109,3 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 228,5 | 102,6 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 5,7 | 126,4 |
| **Sut, *ming tn.*** | **974,7** | **104,4** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 36,2 | 111,0 |

| | | |
|---|---|---|
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 930,0 | 104,3 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 8,5 | 98,0 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **419,2** | **100,5** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 21,6 | 117,3 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 266,1 | 105,4 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 131,5 | 89,9 |

## Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 241,7 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 94,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda)




## Sut

**Hajmi,** *ming tonna.*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,*** *% da*




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 974,7 ming tonna sut (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 95,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha
## sut yetishtirish hajmi, *tonna*




## Tuxum

**Hajmi,** *mln.dona*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 419,2 mln.dona tuxum (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 63,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, *ming dona*




## Baliq

**Hajmi,** *tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*



*Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi*




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1918,0 tonna (2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 42,5 % ga kam ) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 52,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi,** *tonna*



# Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 91,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 9,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 15,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 79,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 10,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 64,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 25,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni,** ***ming bosh***




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 777,7 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023- yilning 1- oktabriga nisbatan 44,9 ming boshga (2,6 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soning 91,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, *ming bosh*



## Sigirlar

**Soni,** ***ming bosh***




**O‘sish sur’ati,** ***% da***




***Bosh soningning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 578,1 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2023- yilning 1- oktabriga nisbatan 12,8 ming boshga (2,3 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh soningning 89,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning bosh soni, *ming bosh*



## Qo‘y va echkilar

**Soni, *ming bosh***




**O‘sish sur’ati, *% da***




***Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 5 068,2 ming boshga yetdi.
- qo‘y va echkilarning bosh soni 2023- yilning 1- oktabriga nisbatan 116,3 ming boshga (2,3 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh soning 84,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

### Qashqadaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning bosh soni, *ming bosh*



## Otlar

**Soni, *bosh***




**O‘sish sur’ati, *% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2024- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 36 796 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2023- yilning 1- oktabriga nisbatan 1 138 boshga (3,2 %) boshga ko‘paydi.
- otlar bosh soninig 79,2 % i dehqon va nomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha otlarning bosh soni,** *bosh*





<u>**Parrandalar**</u>

**Soni,** ***ming bosh***




**O'sish sur'ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 6 820,8 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2023- yilning 1- oktabriga nisbatan 211,8 ming boshga (3,2 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 64,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning bosh soni,** *ming bosh*

